

“BONU” – EPISTOLYAR ROMAN JANRI NAMUNASI SIFATIDA

Yusupova Yulduz Rajabovna
Alfraganus University magistranti
Ilmiy rahbar: Salima Jumayeva

Annotatsiya. Dunyo adabiyoti tarixida epistolyar romanning o‘z genetik-badiiy asoslari va alohida o‘rni mavjud. Sharq, xususan, o‘zbek so‘z san’atidagi nomalar, nasriy va she’riy asarlar tarkibiga kiritilgan turli-tuman maktublar fikrimizga guvohlik bera oladi. Maqolada yozuvchi Iqbol Mirzoning epistolyar roman janrida yaratgan “Bonu” asarining o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *badiiy ruh, obrazli so‘z, roman, syujet, kompozitsiya, epigrafi, zamonaviy adabiyot.*

Kirish. Jahon adabiyoti tarixida epistolyar romanning o‘z genetik-badiiy asoslari va alohida o‘rni mavjud. Sharq, xususan, o‘zbek so‘z san’atidagi nomalar, nasriy va she’riy asarlar tarkibiga kiritilgan turli-tuman maktublar fikrimizga guvohlik bera oladi. Garchi xat shaklidagi asarlar turli milliy adabiyotlarda qadimdan mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, epistolyar yoxud maktub romanlar dunyo adabiy jarayonining nisbatan keyingi bosqichlarida badiiy janr sifatida shakllandi va o‘zining adabiy-estetik rivojlanish yo‘lini boshladi.

Asosiy qisim

Epistolyar (epistole) yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib – maktub, xat, xabar degan ma’nolarni anglatadi. Manbalarga ko‘ra, maktub, xat, xabar kabi vositalar kishilar o‘tasidagi shartli muloqotning dastlabki ko‘rinishlari sanaladi. Jumladan”... skiflar shohi Idanfrisning eroniylarga yuborgan buyumlar – kamon o‘qi, baqa, sichqon va qushdan iborat o‘ziga xos “xat”ini eslash kifoya. Bunday “xatlarning tarixi juda qadimiydir”. [1: 94] Binobarin, yozuv paydo bo‘lishidan juda qadimgi davrlarda bu kabi vositalarga ehtiyoj kuchli bo‘lganligini boshqa manbalar ham dalillaydi. [1: 98]

Epistolyyar yozuvlarning ilk namunasi qadimgi yunon faylasufi Epikur tomonidan yaratilgan. Uning bizgacha yetib kelgan namunalari orasida Gerodot, Epikur va uning Menekeyga yozgan maktublari mavjud. Yaqinda Epikurning “Menekeyga maktub”i Xurshid Axmedov tarjimasida o‘zbek kitobxonlariga taqdim etildi. [3:141-149]. Epistolyyar uslubning adabiy janr sifatida shakllanishi esa yunon va rim adabiyotining mumtoz vakillari Sitseron, Goratsiyning she’riy maktublariga borib taqaladi. Shuningdek, “Katullaning do‘stlariga yo‘llagan noma tarzidagi she’rlari, Ovidiyning “Pontiy maktublari”, miflardagi ayol personajlarning o‘z yorlariga bag‘ishlangan muhabbat xatlaridan tashkil topgan “Geroidalar”, Goratsiyning falsafiy-adabiy ruhdagi yigirma uch maktubdan iborat “Nomalar” kitobi epistolyyar janrning yuzaga kelishi va shakllanishida e’tiborga molik muhim manbalardan hisoblanadi”[2:84].

Jahon adabiyotshunosligida epistolyyar romanlar ilmiy-nazariy muammo ob’ekti sifatida qiyosiy-tipologik nuqtai nazaridan tadqiq etila boshlandi. Tahlillarga ko‘ra, A.Rob-Griye asarlarida tashqi olam narsalari xolis va bo‘rtiq holda tasvirlansa, N.Sarrot romanlarida ongosti qatlamlarida kechgan sirli evrilishlarning dialogik stixiyasi o‘z ifodasini topadi. M.Byuter polifonik romanlarida zohiran tarqoq tuyulgan fikr-kechinmalar mozaika qonuniyati asosida yaxlit butunlikka birikadi. Frans Kafkaning “Otamga maktublar”, Epikurning “Milenaga maktublar” kabi epistolyyar janrdagi nomalari jahon adabiyoti tarixida mustahkam o‘rin egallagan asarlar sirasiga kiradi. [2:264] Ta’kidlash joizki, M.Byuterning “O‘zgarish”, K.Simonning “Flandriya yo‘llari”, N.Sarrotning “Siz ularni eshityapsizmi?” romanlarida epistolyyar janr xususiyatlaridan o‘rinli foydalanilgan.”[3:61.]

XIX asrga kelib, Rossiyada epistolyyar janrning tarixiy hikoya, oilaviy xronika shaklidagi namunalari yuzaga kela boshladi. I.S. Turgenevning “Faust” F.Dostoyevskiyning “Kambag‘allar” va boshqa bir qator asarlar bu janr imkoniyatlarining badiiy ijod rivojidadagi o‘rnini belgilab berdi.

Aslida epistolyyar asar namunalariga atoqli arboblarning madaniy-ijtimoiy va tarixiy ahamiyatga molik yozishmalari ham kiradi. Xususan,

Alisher Navoiyning "Munshaot" asari mamtoz o'zbek adabiyotimizning klassik durdonasi hisoblanadi.

Biroq zamonaviy o'zbek adabiyotida bu uslubning keng imkoniyatlaridan samarali foydalanish an'anasi XX asrning ikkinchi yarimiga to'g'ri keladi. Xususan, epistolyar janr yo'lqinlarini atoqli o'zbek nasrnavis adiblari O.Yoqubov, O'.Hoshimov, A.Ibrohimov ijodida kuzatish mumkin. Masalan, Abduqahhor Ibrohimovning "Uyqu kelmas kechalar" romani, boshidan oxirigacha asar bosh qahramoni Faxri Kamolning "ko'ngil erkasi" Yoqutxonga yo'llagan xatlaridan tashkil topgan. [3:234] Bundan tashqari O'lmas Umarbekovning "Qizimga maktublar", Xurshid Do'stmuhammadning "Hijronim mingdir mening", M.M.Do'stning "Galatepaga qaytish", X.Sultonning "Ajoyib kunlarning birida", E.A'zamning "Bayramdan boshqa kunlar" qissalari hamda Iqbol Mirzoning "Bonu" romanida shu kabi epistolyar uslub namunalariga duch kelamiz. Umuman oiganda, syujet qurilishida voqealarning haqiqatda yuz berish tartibining o'zgartirilishi o'quvchi diqqat-e'tiborini voqeadan uning zamiridagi mohiyatga ko'chirishi bilan ahamiyatlidir. Shu bois ham adiblar badiiy vaqt bilan bog'liq ijodiy tajribalarga tez-tez qo'l urishadi.

Ma'lumki, epistolyar asarlar asosan ishqiy-sentimental xarakterda, oshiq-ma'shuqlarning yozishmalaridan iborat bo'ladi. Biroq ijodkor g'oyaviy-badiiy niyatiga ko'ra ana shu yozishmalar orqali ham ijtimoiy voqelik manzaralarini chizishi mumkin. Iqbol Mirzoning "Bonu" romanida ilgari surilgan g'oyaviy-badiiy maqsad milliy tariximizning muayyan davrida kechgan ijtimoiy-siyosiy voqeliklar fonida keng tasvirda berilishi bilan ahamiyatli. Asar voqealari epistolyar janr imkoniyatlarining zamonaviy uslubi taqozasiga ko'ra, "maktub – telegram" ko'rinishida bayon etiladi. Asarda an'anaviy epik prozani esga soluvchi tasvirlar qahramon tilida shu darajada mukammal bayon etiladiki, undagi eng muhim va eng kichik hodisa va tafsilotlar ham nazardan chetda tushirib qoldirilmaydi. Buni yozuvchining ijodiy niyati sifatida keltirgan asar mazmunini ifodalovchi:

"Hayotingni o'zgartirgay bir odam va bir Kalom,

O'shal inson sen o'zingsan... Endi so'zni top, tamom!" [5:2]

misralar bayonidagi epigraf ham dalillaydi. “Ayni satrlarda samimiyluk, tuyg’ular tiniqligi, mazmun va shakl mutanosibligi, tasvirdagi tabiiyluk va ichki dramatizm asarning g’oyaviy-badiiy xususiyatini belgilaydi. Zero, bunday holat ma’naviyati boy, ruhi tetik, doimo yangilikka intiladigan shaxslardagina sodir bo’ladi. Dunyo taraqqiyoti shu kabi insonlarning sa’y-harakati tufaylidir.” [6:120] Shunga ko’ra, kitobxon “Bonu” romanini sinchiklab o’qish hamda uqish asnosida bir haqiqatni anglab yetadiki, asarda ilgari surilgan g’oya hamda ijtimoiy tasvir motivlari ustuvor o’rinda turadi.

Romanda hikoya qilinishicha, asarning bosh qahramoni hisoblangan Bonu o’zi yashagan zamonning turli-tuman muammolari girdobida qoladi, tirikchiligini o’tkazish uchun xorijga borib ishlashga-da majbur bo’ladi. Voqeyalar rivoji shuni ko’rsatadiki, asarda garchi muhabbat sinovlariga urg’u berilgan o’rinlar mavjud bo’lsa-da, u romanning badiiy-estetik strukturasida yetakchi o’rin egallamaydi. Bonu tilidan hikoya qilinuvchi mazkur asarda oddiy o’zbek oilasidagi maishiy hayot tashvishlari, Bonu tegrasida kechgan kechmishlar, muhabbat sinovlari, uning taqdir chzig’ida ro’y bergan iztirobli hodisalar butun bir xalq hayotining katta ijtimoiy fojiasi fonida gavdalantiriladi. Demakki, ayni shu sath ichida yozuvchi bir ayol kechmishlari misolida millat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy o’tish bosqichidagi mash’um davr dardini va shu davrning muhim ijtimoiy hodisotlarini badiiy tafakkur maydoniga olib chiqadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, epistolyar yoxud maktub romanlar dunyo va o’zbek adabiy jarayonining o’ziga xos betakror namunalari canaladi. Shu boisdan, bugungi jahon va o’zbek adabiyotshunosligida epistolyar romanlar ilmiy-nazariy muammo ob’ekti sifatida qiyosiy-tipologik nuqtai nazaridan tadqiqotlar mavzusiga aylana boshlandi. Shu ma’noda, Iqbol Mirzoning “Bonu” romani hozirgi davr o’zbek nasridagi epistolyar janrning shakliy tomondan yangilik hisoblangan sara namunasi sifatida tadqiq qilinishga loyiq asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmonov N. O'zbek mumtoz adabiyot namunalari. II jild. (XIV – XV asr boshlari). – Toshkent: Fan, 2007.
2. Epikur. Menekeyga maktub. Xurshid Axmedov tarjimasi // "Tafakkur" jurnali, 2019 yil, №7. B.141-149.
3. Hamdamov U., Qosimov A. Jahon adaboyoti // O'quv qo'llanma. – Toshkent: Barkamol fayz media. 2017.
4. Yoqubov I. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi. – Toshkent: "Nurafshon business", 2021.
5. Iqbol Mirzo. Bonu. – Toshkent: Factor books, 2022.
6. Jumayeva S. Ikrom Otamurod dostonlarida falsafiy mushohadalar tahlili. Fan va jamiyat// Ilmiy-uslubiy jurnal. – Nukus. 2022, №2.
7. Turdiyeva Y. Personajlar xarakterini yaratishda uslub individualligi (L. Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" romani asosida). Guliston davlat universiteti axborotnomasi ilmiy jurnali. – Guliston, 2022. - № 4. (97) – B. 109 – 112.
8. Mahmudova, S. (2024). Shukur Xolmirzayev hikoyalarida ijodkor obrazi talqini. «*acta NUUz*», 1(1.1. 1), 288-292. **S Mahmudova - «ACTA NUUz», 2024**
9. Inomjonovna, I. D. (2025). Isajon Sulton romanida Bilga xoqon siymosining zamonaviy talqini. Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari, 17(02), 744-746.
10. Nusratov, B. B. O. G. L. (2023). Adabiyotda badiiy obraz tushunchasi, obraz yaratishda ilhom va tafakkurning roli hamda Anvar Suyunning "g 'o 'bdintog 'hikoyalari" da badiiy obrazlar xususiyatlari. *Oriental Art and Culture*, 4(5), 166-169.
11. Jurayeva, N. (2023). Mumtoz she'riyatda Bobur g'azallarining poetik xususiyatlari. *Alfraganus*, (1 (1)), 30-34.
12. Saifnazarov, I., Musaev, F., Khusanov, B., Ernazarova, Y., Xujaev, M., Bekbaev, R., & Ochilova, N. (2025). The Impact of Local Community Education on Sustainable Practices in Eco-Tourism Areas. *Natural & Engineering Sciences*, 10(3).

13. Eshonqulova, S. (2020). Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi tili va undagi sinonimlik hodisasi. *Интернаука*, 18(147 часть 3), 57.
14. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiyy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.
15. Evlen, H., Juraev, D., Ziyamukhamedova, U., Khujaev, M., & Jalilov, F. (2025). PLA/Ti6Al4V composite scaffolds for bone tissue engineering: mechanical and thermal properties via FDM and bioprinting. *Journal of Biomaterials Science, Polymer Edition*, 1-25.